



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 29 - fevral

122-10-0-Q/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Bo‘ka tumanida ayrim yer maydonlarini sud qarorlariga asosan davlat zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida

Bo‘ka tumani hokimligining 2024-yil 12-fevraldagi 2/4-195-sonli xati va taqdim etgan hujjatlarini o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 45¹-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 10, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. Bo‘ka tumani hokimligining 2024-yil 12-fevraldagi 2/4-195-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 6-dekabrdagi 4-1104-2302/3161-sonli ish bo‘yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo‘ka tumani hokimligi va "TM Uzbegim Bo‘ka" MCHJ o‘rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi;

O‘rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 6-dekabrdagi 4-1104-2302/3163-sonli ish bo‘yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo‘ka tumani hokimligi va "Akar Tavuk" MCHJ o‘rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi;

O‘rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 5-dekabrdagi 4-1104-2301/3099-sonli ish bo‘yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo‘ka tumani hokimligi va "Agro Servis MTP" MCHJ o‘rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi;

O‘rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 11-dekabrdagi 4-1104-2301/3157-sonli ish bo‘yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo‘ka tumani hokimligi va "Ortiqboy-Maxsum" fermer xo‘jaligi o‘rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi;

O'rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 6-dekabrdagi 4-1104-2302/3164-sonli ish bo'yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo'ka tumani hokimligi va "Gold Nihol" fermer xo'jaligi o'rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi;

O'rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 5-dekabrdagi 4-1104-2301/3100-sonli ish bo'yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo'ka tumani hokimligi va "Sharofiddin Nur" fermer xo'jaligi o'rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi;

O'rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 13-dekabrdagi 4-1104-2301/3158-sonli ish bo'yicha xal qiluv qaroriga asosan Bo'ka tumani hokimligi va "Qorasiyroq Fayz Agro" fermer xo'jaligi o'rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yer ijara shartnomalari bekor qilingan ilovaga asosan yer maydonlari bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoni hisoblanishini inobatga olib davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilsin.

4. Bo'ka tumani hokimligi (B.Begmatov) ilovada keltirilgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadida, belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrоров) yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

6. Viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Norbo'tayev) bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari v.b. B.Alimbekov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 29-fevraldagi
122-10-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bo`ka tumanida zaxiraga qaytarilayotgan yerlarning manzilli

R O` Y X A T I

T/R	Yerdan foydalanuvchi nomi (Fermer xo`jaligi, MCHJ)	Sud qarorlari	Qaytarilayotgan maydon (ga)
1	"TM Uzbekim Bo`ka" MCHJ	O`rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 6-dekabrdagi 4-1104-2302/3161-sonli ish bo`yicha xal qiluv qarori	17,74
2	"Akar Tavuk" MCHJ	O`rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 6-dekabrdagi 4-1104-2302/3163-sonli ish bo`yicha xal qiluv qarori	10,1
3	"Agro Servis MTP" MCHJ	O`rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 5-dekabrdagi 4-1104-2301/3099-sonli ish bo`yicha xal qiluv qarori	28,63
4	"Ortiqboy-Maxsum" fermer xo`jaligi	O`rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 11-dekabrdagi 4-1104-2301/3157-sonli ish bo`yicha xal qiluv qarori	10,5
5	"Gold Nihol" fermer xo`jaligi	O`rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 6-dekabrdagi 4-1104-2302/3164-sonli ish bo`yicha xal qiluv qarori	69,69
6	"Sharofiddin Nur" fermer xo`jaligi	O`rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 5-dekabrdagi 4-1104-2301/3100-sonli ish bo`yicha xal qiluv qarori	15,19

7	"Qorasiyroq Fayz Agro" fermer xo'jaligi	O'rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2023- yil 13-dekabrdagi 4-1104-2301/3158-sonli ish bo'yicha xal qiluv qarori	56,03
7	Tuman jami:		207,88